

Zohid BOYMURODOV,

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi, PhD

E-mail: zohidboymurodov26@gmail.com.

Tel: (99)959-72-57

Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti Z. Kenjayev taqrizi asosida

YOSHLAR MOLIYAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH ZARURIYATI

Аннотация

Maqolada yoshlar moliyaviy madaniyatini yuksaltirish va ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish hamda ularning turmush tarzini optimallashtirish bilan bog'liq fikr-mulohazalar keltirilgan. Shaxs moliyaviy madaniyati siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik va boshqa madaniyatlar kabi o'z tarkibiga ega ekanligi asoslangan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, moliyaviy madaniyat, turmush tarzi, tadbirkorlik faoliyati, moliyaviy savodxonlik, moliyaviy bilm, pul, daromad.

МОЛОДЕЖНАЯ ФИНАНСОВАЯ КУЛЬТУРА НЕОБХОДИМОСТЬ ОБНОВЛЕНИЯ

Аннотация

В статье содержатся мнения, связанные с повышением финансовой культуры молодежи и вовлечением ее в предпринимательскую деятельность, а также оптимизацией их образа жизни. Оно основано на том, что личная финансовая культура имеет свою структуру, как и политическая, правовая, этическая, эстетическая и другие культуры.

Ключевые слова: Молодежь, финансовая культура, образ жизни, предпринимательство, финансовая грамотность, финансовые знания, деньги, доходы.

YOUTH FINANCIAL CULTURE THE NEED FOR UPGRADE

Annotation

The article contains opinions related to improving the financial culture of young people and involving them in entrepreneurial activities, as well as optimizing their lifestyle. It is based on the fact that personal financial culture has its own structure, like political, legal, ethical, aesthetic and other cultures.

Key words: Youth, financial culture, lifestyle, entrepreneurship, financial literacy, financial knowledge, money, income.

Kirish. Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilinishi ularning turmush tarziga optimal tus berish uchun iqtisodiy asos yaratadi. Biroq bugungi yigit va qizlar turmushini optimallashtirish uchun buning o'zi kifoya qilmaydi. Ayni damda yoshlar moliyaviy madaniyatini yuksaltirish masalalari ustida ham bosh qotirishimiz zarur bo'ladi. Chunki o'z maoshini, topgan daromadini oqilona boshqarishni, sarflashni o'rganmasdan turib, turmush tarzini optimallashtirib bo'lmaydi. Moliyaviy madaniyat past bo'lgan sharoitda hech qanday iqtisodiy imkoniyat turmush tarziga ratsional ko'rinish bermaydi, uni yuksaltirmaydi. Binobarin, mamlakatimiz yigit va qizlarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilishga qaratilgan sa'y-harakatlar ularning moliyaviy madaniyatini yuksaltirishga yo'naltirilgan choralar bilan uyg'un holda amalga oshirilmog'i dardkor. Aynan ana shu uyg'unlik optimal turmush tarzining mustahkam poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama va natijalar. Moliyaviy madaniyat – shaxs moliyaviy ongi va faoliyati birligini ifodalovchi tushunchadir. U, bir tomondan, shaxsning moliyaviy xabardorligi, bilimlari va tasavvurlari, ikkinchi tomondan, uning moliyaviy faoliyati normalari va modellari, uchinchi tomondan esa, moliyaviy maqsad-muddolari, qadriyatlarini negizida tarkib topadi [1]. Moliyaviy madaniyat shaxs turmushi uchun muhim ahamiyatga ega. “Ta'kidlash lozimki, moliyaviy madaniyat insonning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvini va jamiyatga moslashuvini ta'minlaydi, ijtimoiy pillapoyalardan ko'tarila borish imkonini beradi, kasbiy karyeraning jadal rivojlanishiga, o'z shaxsini namoyon qilish, o'z-o'zini rivojlantirish cho'qqilarini egallashga zamin yaratadi”[1]. Shaxsning yuksak moliyaviy madaniyatga ega bo'lishining ijtimoiy ahamiyati ham katta: kishilar moliyaviy madaniyatni yuksalgani sayin jamiyatdagi moliyaviy munosabatlar ham takomillashib boradi, moliyaviy xizmatlar sifati oshadi.

Shaxs moliyaviy madaniyati siyosiy, huquqiy, axloqiy, estetik va boshqa madaniyatlar kabi o'z tarkibiga ega. Albatta, bu tarkib maxsus ilmiy izlanishlar orqali aniqlanmog'i va ta'riflanmog'i dardkor. Shu boisdan biz bu o'rinda uning asosiy elementlarini bayon etish bilan cheklanamiz:

moliyaviy bilimlar; inson o'z hayoti davomida moliyaviy resurslar xususiyatiga doir ko'plab ma'lumotlarni o'zlashtira boradi. Bu ma'lumotlar nazariy xarakter kasb etgani sari uning moliyaviy bilimlari shakllanadi. Shaxs moliyaviy bilimlari doirasi kengaygani sayin uning moliyaviy jarayonlar, moliyaviy resurslar (ommaviy, xususiy), moliyaviy xizmatlar (bank xizmatlari, sug'urta, lizing va h.k.), moliya bozorlari (birja bozori, valyuta bozori, pul bozori va h.k.), qimmatbaho qog'ozlar (aksiyalar, obligatsiyalar, zayomlar va h.k.), daromad (maosh, foyda va h.k.) va xarajat (soliqlar, kommunal to'lovlar, kredit to'lovlari, investitsiyalar va h.k.) turlari to'g'risidagi tasavvurlari boyib, to'lishib boradi. Turli moliyaviy bilimlarning yaxlit tizimi shaxs moliyaviy tafakkurini vujudga keltiradi. Moliyaviy bilimlarni moliyaviy madaniyatning markaziy elementi sifatida qayd qilish mumkin, chunki u shaxsning moliyaviy qadriyatlarida ham, xulq-atvorida ham o'z ifodasini topadi;

moliyaviy qadriyatlar; moliyaviy qadriyatlarini ikki rakursda talqin qilish mumkin. Xususan, jamiyatning moliyaviy qadriyatlarini deganda undagi moliyaviy faoliyat shakllari va uslublari, bunday faoliyatni amalga oshirish imkonini beradigan mexanizmlar nazarda tutiladi. Biz masalaning bu rakursini e'tibordan chetda qoldirayapmiz. O'z navbatida, shaxsning ham moliyaviy qadriyatlarini mavjud. Bu qadriyatlar shaxsning moliyaviy ehtiyojlari va manfaatlarini negizida shakllanadi. Mazkur ehtiyoj va manfaatlarining qondirilishiga xizmat qiladigan har qanday resurs, xizmat, qimmatbaho qog'oz, norma, daromadni boshqarish yo'llari moliyaviy qadriyat darajasiga ko'tariladi. Shaxsning moliyaviy qadriyatlarini, bir tomondan, uning qadriyatlarini tizimi va moliyaviy tafakkuri, ikkinchi tomondan esa, jamiyatning moliyaviy imkoniyatlari va qadriyatlarini bilan mutanosib ravishda o'zgarib boradi. Shaxsning axloqiy, siyosiy, huquqiy, estetik, diniy va boshqa qadriyatlarini o'zgarishi uning moliyaviy qadriyatlarining ham yangicha tus olishiga sabab bo'ladi. Shuningdek, jamiyat moliyaviy voqeligi transformatsiyasi ham unda iz qoldiradi;

moliyaviy xulq-atvor; umumiy ma'noda, moliyaviy xulq-atvor deganda shaxsning muayyan daromad olish va uni xarajat qilishga qaratilgan barcha hattiharakatlari yig'indisi tushuniladi. Bu xulq-atvor odatda daromad qilish, uning ma'lum qismini

jamlash, xarajatlarni taqsimlash, turli xaridlarni amalga oshirish va shu kabi harakatlardan tarkib topadi. Sirasini aytganda, moliyaviy xulq-atvor shaxs moliyaviy bilim va qadriyatlarining amaliyotda qo'llanishidan o'zga narsa emas. U shaxsga mavjud ijtimoiy shart-sharoitlarga, moliyaviy imkoniyatlarga moslashish, o'z ehtiyoj va manfaatlarini mazkur shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda qanoatlantirish imkonini beradi.

Shaxsning moliyaviy madaniyati mahdud ravishda takomil topmaydi. U turfa omillar ta'sirida mazmunan va shaklan o'zgaradi. Masalan, uning shakllanishi jamiyatning iqtisodiy ahvoli, mehnat bilan mashg'ul kishilarning maoshi miqdori, turli investitsion va sug'urtaviy dasturlar kabi iqtisodiy omillar ta'siri ostida sodir bo'ladi. Uning moliyaviy bilimlari va qadriyatlari mavjud iqtisodiy-moliyaviy voqelikdan "rang oladi", moliyaviy faoliyati esa aynan ana shu voqelik kontekstida amalga oshiriladi. Iqtisodiy omillar o'zgarishi shaxs moliyaviy madaniyatining o'zgarishiga olib keladi.

Moliyaviy madaniyatga siyosiy omillar ham ta'sir ko'rsatadi. Masalan, aholining hokimiyat organlariga ishonchi yuqori bo'lgan, iste'molchilar huquqlari qat'iy himoya qilinadigan jamiyatlarda shaxs moliyaviy madaniyati yuqori bo'ladi. Aksincha, kishilarning davlatga, jamiyatdagi siyosiy institutlarga ishonchi so'na borgani sayin bunday madaniyat ham zaiflashadi. Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish mexanizmining besamarligi ham shunday oqibatlariga olib keladi. Davlat organlari tomonidan fuqarolar moliyaviy faoliyatining kafolatlanishi, moliyaviy manfaatlarining qonunan himoya qilinishi darhol shaxs moliyaviy ongi saviyasida, moliyaviy faoliyati xarakterida o'z aksini topadi.

Ijtimoiy omillar haqida gapirganda avvalo ta'lim tizimini tilga olish kerak. Ma'lumki, shaxsning axloqiy, siyosiy, diniy, huquqiy va boshqa madaniyatlari ta'lim tizimining kuchli ta'siri ostida qaror topadi. Uning moliyaviy madaniyati xususida ham shunday deyinish mumkin. Insonning moliyaviy madaniyati ta'lim mazmuni va sifatiga to'g'ri proporsionaldir. Mazmun va sifatning takomillashuvi pirovardida moliyaviy madaniyat rivojlanishi uchun zamin hozirlaydi. Biroq bundan shaxs moliyaviy madaniyati nuqul ta'lim tizimi ta'sirida shakllanar ekan, degan xulosa chiqarish to'g'ri emas. Ijtimoiy sohaning boshqa tarkibiy qismlari, jamiyat a'zolari o'rtasidagi aloqalar ham unda jiddiy iz qoldiradi.

Moliyaviy madaniyatning shakllanish manbalari ko'plab demografik omillarga ham borib taqaladi. Bir tomondan, shaxs istiqomat qilayotgan hududdagi demografik vaziyat, xususan aholi soni, tarkibi, zichligi uning moliyaviy madaniyati saviyasini belgilaydi. Chunki, masalan, aholi soni katta hududlarda nisbatan ko'proq moliyaviy resurslar va institutlar ja'm bo'ladi. Bu hol shaxs moliyaviy bilimlari, qadriyatlari va xulq-atvori tabiatini shakllantiradi. Ikkinchi tomondan esa, yosh, jins, oilaviy ahvol bilan bog'liq ko'rsatkichlar ham unga ta'sir ko'rsatadi. Chunki vaqt o'tishi va oilaviy ahvol o'zgarishi bilan shaxs moliyaviy ongi va faoliyati ham o'zgacha shakl kasb qila boradi. Mazkur parametrlarning o'zgarishi shaxs moliyasits madaniyatining ham o'zgarishiga olib keladi.

Moliyaviy madaniyatning qaror topishiga ta'sir ko'rsatuvchi shaxsiy omillar ham bor. Shaxsning moliyaviy ongi va faoliyati u tarbiya topgan oiladagi vaziyatga taqaladi. Uning ta'lim muassasalaridagi tahsili sifati ham moliyaviy madaniyatida o'z ifodasini topadi. Shuningdek, moliyaviy ong va faoliyat shaxsning kasb-kori, ish joyidagi vaziyat bilan hamohangdir. Shu sababdan, masalan, o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan shaxsning moliyaviy bilimlari doirasi, qadriyatlari va xulq-atvori oliy ma'lumotli shaxsnikidan tubdan farq qiladi. Davlat xizmatchisi va tadbirkor, o'qituvchi va dehqon, shifokor va haydovchi, madaniyat xodimi va sotuvchining moliyaviy madaniyati o'rtasidagi farqni ham ko'rish qiyin emas.

Shaxs moliyaviy madaniyatiga qator ruhiy omillar ham ta'sir o'tkazadi. Shaxs tipi, uning temperamenti, e'tiqodi, fazilatlarining shakllanganligi darajasi, hayotiy pozitsiyasi, moliyaviy boyliklarga munosabati, moliyaviy institutlarga munosabati, moliyaviy resurslardan foydalanish borasidagi tajribalari va shu kabi ko'plab omillar uning moliyaviy ehtiyoj va manfaatlari xarakterini, ularni qondirishga qaratilgan sa'y-harakatlar yo'nalishlarini belgilaydi. Masalan, islomga astoydil e'tiqod qo'yan shaxs kredit, lizing kabi iqtisodiy munosabatlardan o'zini tiyadi. Moliyaviy institutlarga ishonchi yuqori bo'lmagan shaxsni bank xizmatlaridan foydalanishga undash bag'oyat murakkab kechadi.

Moliyaviy madaniyat tadbirkorlik faoliyati kabi yoshlar turmushini optimallashtirishda jiddiy ahamiyatga ega. Bu boradagi madaniyati yuksalgan yigit va qizlar topgan daromadlarini o'z turmushlari sifati va farovonligini oshirishga yo'naltirishga ko'nikadilar. Bunday tashqari, u:

- yoshlarni moliyaviy jihatdan ijtimoiylashtiruvchi muhim omil bo'lib xizmat qiladi, ulardagi moliyaviy-adaptatsion ko'nikmalarni rivojlantiradi;

- yoshlar moliyaviy bilimlarini kengaytiradi, ularning bu boradagi tasavvurlariga butunlik ato etadi, ularni muayyan yaxlitlikka hamda tizimga keltiradi;

- pragmatik moliyaviy qadriyatlarning yoshlar qadriyatlari tizimidan joy olishiga zamin yaratadi, bu qadriyatlarni jamiyat moliyaviy qadriyatlari bilan uyg'unlashtiradi;

- yigit va qizlar moliyaviy xulq-atvori va faoliyatiga maqsadlilik, ijtimoiy yo'nalganlik baxsh qiladi, uni ratsional norma va modellarga bo'ysundiradi;

- jamiyat taqdim qilayotgan moliyaviy xizmatlardan oqilona, o'z manfaatlari va imkoniyatlariga mos ravishda foydalanish malakasini shakllantiradi;

- turli aksiya, obligatsiya, zayom va boshqa qimmatbaho qog'ozlardan foydalangan holda o'z daromadlarini oshirish va turmush darajasini yaxshilash imkonini beradi;

- daromad va mablag'larini ratsional boshqarish, ularni oqilona xarajat qilish, shaxsiy va oilaviy budjetini imkoniyatlari doirasida tashkil etish imkonini beradi;

- maishiy turmushini yaxshilashga xizmat qilmaydigan, madaniy saviyasini yuksaltirishga yo'nalmaydigan nooqilona xarajatlardan o'zini tiyishga odatlantiradi;

- yigit va qizlarni shubhali, avanyuristik, moliyaviy ahvolini yomonlashtiradigan moliyaviy operatsiyalar, piramidalar, noqonuniy daromad topish yo'llaridan sug'urta qiladi.

O'zbekistonda uzoq yillar davomida yigit va qizlar moliyaviy madaniyatini yuksaltirishga xizmat qiladigan choralar aholi moliyaviy savodxonligini oshirishga yo'naltirilgan dasturlar doirasida amalga oshirildi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 11 iyuldagi qaroriga muvofiq "O'zbekistonda aholining moliyaviy savodxonligini oshirish" loyihasi, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Jahon Banki Guruhi moliyalar va bozorlar bo'yicha departamentining Markaziy Osiyo va Ozarbayjonda moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash bo'yicha loyihasi (ACAFI) hamkorligida SSP (Savdo-sanoat palatasi – Z.B.) trenerlari va xodimlarining moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha dastur"[2] hayotga tatbiq etildi. Keyingi yillarda aynan yoshlarning moliyaviy madaniyatini oshirishga yo'naltirilgan maqsadli loyiha va dasturlar ham paydo bo'ldi. Masalan, Yevropa Ittifoqining "O'zbekistonda moliyaviy savodxonlik dasturi" loyihasi amalga oshirildi, uning doirasida "Moliyaviy savodxonlik asoslari" o'quv qo'llanmasi yaratildi[3/]. Shuningdek, 2021 yilda tasdiqlangan "O'zbekistonda 2021-

2023 yillarga mo'ljallangan Moliyaviy xizmatlar ommabopligini oshirish milliy strategiyasida" umumta'lim muassasalarida va noiqtisodiy yo'nalishdagi ta'lim muassasalarida yoshlar uchun "Moliyaviy savodxonlik" o'quv dasturi joriy etilishi ko'zda tutilgan [4] "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida" ham bu masalalar e'tibordan chetda qoldirilmagan [5].

Xulosa. Qayd qilish mumkinki, mamlakatimizda yigit va qizlarning moliyaviy bilimlari doirasini kengaytirish, moliyaviy qadriyatlarini shakllantirish, moliyaviy xulq-atvoriga ratsional tus berish masalasi davlat va jamiyat nazaridan chetda qolgan muammo sanalmaydi.

Shunga qaramasdan, mamlakatimiz yigit va qizlarining moliyaviy madaniyati yuksak saviyada shakllangan, deya e'tirof etishga hali erta. Bu borada qator muammolar, kun tartibida turgan vazifalar ko'zga tashlanadiki, ularni tizimli ravishda bartaraf etmasdan turib, yoshlar turmushini optimallashtirishga zamin hozirlab bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Силина С.Н., Ступин В. Ю. От финансовой грамотности к финансовой культуре.// Вестник Балтийского федерального университета им. И. Канта. Серия: Филология, педагогика, психология, 2017, №4.- 72-с.
2. Obilov M.R. Aholining moliyaviy savodxonligi: mazmuni, ahamiyati va asosiy jihatlari.// Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2019, №1.- 7-b.
3. O'zbek yoshlari moliyaviy savodxonlikka Yevropa standartlari bo'yicha o'qitiladi.// uztag.info, 2014, 29 aprel.
4. Maktablarda moliyaviy savodxonlik darslari o'tiladi.// kun.uz, 2021, 12 iyul.
5. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".// <https://nrm.uz/contentf?doc=648480>.